



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 1-SON

HUMANSCIENCES.UZ

№ 1 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.

E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co

ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Professor.

E-mail: docravshanniyazov@gmail.com

ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

O'zbekiston.

E-mail: z.sanakulov@cspu.uz

ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: b_muxammed@karsu.uz

ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru

ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru

ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz

ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru

ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Suyarov Maxmudjon

YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI TARIXINI YORITUVCHI YOZMA MANBALAR

TAHLILI.....5-10

Azimova Maftuna

FARG'ONA VODIYSIDA O'TISH DAVRI BOSQICHLARIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING
MODDIY-TEXNIK HOLATI.....

11-17

Турдумуратов Янгибой

ХОЗЯЙСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ СКОТОВОДОВ СУРХАН-ШЕРАБАДСКОГО ОАЗИСА ПО
ЭТНОТЕРРИТОРИАЛЬНОМУ РАСПОЛОЖЕНИЮ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

18-25

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Abduraxmanova Laylo

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KADRLAR RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMINI

TAKOMILLASHTIRISH.....26-31

Hamrayev Abdulkofiz

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA UNING INSON RESURSLARI MENEJMENTIGA

TA'SIRI.....32-36

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI

TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TAHLILNING AHAMIYATI37-43

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Eshiniyazov Berdiniyaz

DAVLAT BOSHQARUVIDA AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISHNING

STRATEGIK AHAMIYATI44-52

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TAHLILNING AHAMIYATI

Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm kafedrası

Dotsenti, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Maxammadov Diyorbek Muxtor o'g'li

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalar va elektron xizmatlar iqtisodiyotda keskin rol o'ynab borayotgan bir paytda, tijorat banklari ham boshqaruv jarayonlarini yangi sharoitga moslashtirishga majbur. Maqolada iqtisodiy tahlil usullari va ularning tijorat banklari boshqaruvida qo'llanilishi muhokama qilinadi, shuningdek, O'zbekistondagi tijorat banklari faoliyatidan olgan statistik ma'lumotlar asosida tahlil va takliflar keltiriladi. Iqtisodiy tahlil banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, raqamli xizmatlar samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim vosita ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, raqamli iqtisodiyot, boshqaruv faoliyati, iqtisodiy tahlil, moliyaviy barqarorlik, raqamli bank xizmatlari, statistik ko'rsatkichlar.

THE IMPORTANCE OF ECONOMIC ANALYSIS IN IMPROVING MANAGEMENT PERFORMANCE IN COMMERCIAL BANKS IN THE DIGITAL ECONOMY

Turgunov Mukhriddin Moydinjon oglu

Fergana State University

Department of Economics and Tourism

Associate Professor, Doctor of Economic Sciences (DSc)

Makhammadov Diyorbek Mukhtor oglu

Master's student, Fergana State University

Annotation. This article considers the issue of improving the management of commercial banks in the digital economy. At a time when digital technologies and electronic services are playing a decisive role in the economy, commercial banks are also forced to adapt their management processes to new conditions. The article discusses the methods of economic analysis and their application in the management of commercial banks, and also provides analysis and proposals based on statistical data from the activities of commercial banks in Uzbekistan. It is shown that economic analysis is an important tool for improving the financial stability of banks, assessing the effectiveness of digital services, and substantiating management decisions.

Keywords: commercial banks, digital economy, management activities, economic analysis, financial stability, digital banking services, statistical indicators.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i1v2y2026/n06>

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda iqtisodiy tahlilning ahamiyatini aniqlash va baholash maqsad

qilingan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Xususan, tizimli yondashuv asosida tijorat banklari faoliyati yagona boshqaruv tizimi sifatida o'rganilib, unda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy tahlil jarayonlariga ta'siri tahlil qilindi. Tahlil va sintez usullari orqali bank boshqaruvida qo'llanilayotgan an'anaviy va raqamli tahlil mexanizmlarining afzallik va kamchiliklari aniqlab berildi.

Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida raqamli iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari va boshqaruv samaradorligi avvalgi davrlar bilan qiyosiy o'rganildi. Statistik tahlil usuli banklarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari hamda boshqaruv qarorlarining natijadorligini baholashda qo'llanildi.

Tadqiqot davomida iqtisodiy-mantiqiy xulosalar chiqarish, induksiya va deduksiya usullari orqali raqamli texnologiyalar asosida olib boriladigan iqtisodiy tahlilning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli yoritildi. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga oid ochiq statistik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlar va soha mutaxassislarining ilmiy qarashlari tadqiqotning axborot bazasini tashkil etdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatini boshqarish va iqtisodiy tahlil masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda asosan quyidagi ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Bank ishi va moliya asoslari darsligida tijorat banklarining moliyaviy faoliyati, bank boshqaruvi va moliyaviy tahlilning nazariy asoslari keng yoritilgan. Mualliflar banklarda iqtisodiy tahlilning moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va boshqaruv qarorlarini asoslashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Mazkur asar tadqiqotning nazariy poydevorini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Pul va banklar asarida pul-kredit tizimi, banklar faoliyatining iqtisodiy mohiyati hamda bank operatsiyalarini tahlil qilish masalalari yoritilgan. Ushbu manbada bank tizimida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash usullari keltirilgan bo'lib, tadqiqotda iqtisodiy tahlil vositalarini asoslashda foydalanildi.

O'zbekiston Bank jurnalida chop etilgan Sh. To'xtayevning "Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari" nomli ilmiy maqolasida bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarb jihatlari ochib berilgan. Muallif raqamli yechimlarning bank boshqaruvi samaradorligini oshirishdagi o'rni va iqtisodiy tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini asoslab beradi. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlilning yangi shakllarini yoritishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bevosita iqtisodiy tahlilning zamonaviy usullarini joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatlarni chuqurroq ochib berishga qaratilgan.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi jarayonida bank sektori ham tubdan o'zgarishlar yoqasida turibdi. Elektron to'lovlar, onlayn xizmatlar, mobil bank xizmatlari, shuningdek, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari banklarning an'anaviy boshqaruv modeliga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat bank xizmatlarining tezligi va qulayligini

oshirishga xizmat qiladi, balki moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini ham beradi.

Tijorat banklari faoliyatida endi nafaqat mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati, balki moliyaviy ko'rsatkichlar, aktiv va passivlar balansini saqlash, kapital yetarliligi, likvidlik ko'rsatkichlari, shuningdek, operatsion xarajatlar va risk-boshqaruv kabi jihatlar ham raqamli muhitda yangi talablarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar orqali mijozlar bilan munosabatlarni chuqurlashtirish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va xizmatlar assortimenti bilan moslashtirish zarurati ortmoqda.

Shu munosabat bilan, banklarda boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda iqtisodiy tahlilning roli sezilarli darajada ortmoqda. Iqtisodiy tahlil bank rahbarlari va menejerlariga qarorlarni faqat tajriba yoki subyektiv baholarga asoslanmasdan, mustahkam faktlar va statistik ma'lumotlarga tayangan holda qabul qilish imkonini beradi. Natijada, risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlil yordamida banklar kelajakdagi tendensiyalarni oldindan prognoz qilishi, raqamli texnologiyalarni joriy etishda optimal strategiyalar ishlab chiqishi va raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.

Asosiy qism. Iqtisodiy tahlil tijorat banklarida boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etishda asosiy vosita sifatida qaraladi. U nafaqat iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy ko'rsatkichlarni o'rganish, balki ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash va qarorlarni faktlarga asoslab qabul qilish imkonini beradi. Tijorat banklarida moliyaviy natijalarni baholash, aktiv-qarz portfeli strukturasini, risk darajalari va xizmatlar samaradorligini tahlil qilish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning boshqaruvini raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish, mijoz segmentatsiyasi va analitik tahlil, operatsion samaradorlikni oshirish, ma'lumot xavfsizligi va kiber-risklarni boshqarish kabi yangi xususiyatlarga ega bo'ladi. Shu bois iqtisodiy tahlil ortiqcha xarajatlarni aniqlash, raqamli xizmatlar investitsiyalarining samaradorligini baholash va kelajakdagi tendensiyalarni prognoz qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotlar tahlili tijorat banklariga aktivlar va passivlar strukturasini, likvidlik ko'rsatkichlarini, kapital yetarliligini va foyda marjalarini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, kredit portfeli va qarzdorlikni tahlil qilish orqali nuqsonli kreditlar ulushi va yuzaga keladigan risklar aniqlanadi, bu esa banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli xizmatlar samaradorligini tahlil qilish, ya'ni onlayn va mobil ilovalardan foydalanish darajasi, xarajatlar va daromad nisbati ham muntazam kuzatib boriladi. Bu ma'lumotlar bank rahbarlariga raqamli xizmatlar bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bank boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Fintech texnologiyalari, blockchain, sanoat 4.0 va sun'iy intellekt (AI) banklar uchun nafaqat imkoniyatlar, balki tahdidlar ham yaratmoqda. Shu sababli iqtisodiy tahlil yordamida bank rahbarlari kelajakdagi strategiyalarni aniqlab olishlari, investitsiya loyihalarining rentabelligini baholashlari va kiber-xavfsizlik risklarini kamaytirishlari mumkin. Bu jarayon bankning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga yordam beradi[1].

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklari faoliyati bo'yicha so'nggi ko'rsatkichlar bank rahbariyatiga aktivlar, majburiyatlar va depozitlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlash imkonini beradi. Natijada, iqtisodiy tahlil tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish, risklarni kamaytirish, raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda markaziy rol o'ynaydi. Banklar bu vositadan foydalanib, kelajak strategiyalarini ishlab chiqish, raqamli investitsiyalarni samarali boshqarish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishda yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlil bank rahbarlariga raqamli transformatsiya jarayonida qarorlarni tezkor va aniq qabul qilishga yordam beradi, raqobatbardoshlikni oshiradi hamda bank xizmatlarining sifat va samaradorligini yangi darajaga ko'taradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida boshqaruv faoliyatini tashkil etish jarayoni tobora murakkablashib borayotgani iqtisodiy tahlilning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. An'anaviy moliyaviy tahlil bilan bir qatorda, hozirgi kunda real vaqt rejimidagi (real-time) tahlil, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) tahlili va prognozli analitika bank boshqaruvining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu esa rahbariyatga nafaqat mavjud holatni baholash, balki bozor tendensiyalarini oldindan aniqlash imkonini bermoqda.

Iqtisodiy tahlil raqamli bank boshqaruvida strategik rejalashtirish, byudjetlashtirish va investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonlarida muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Xususan, raqamli transformatsiya doirasida joriy etilayotgan IT-loyihalar, avtomatlashtirilgan bank tizimlari va masofaviy xizmatlar uchun yo'naltirilayotgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash tahlilsiz mumkin emas. Bu jarayonda xarajatlar va kutilayotgan daromadlar o'rtasidagi nisbat, loyiha muddati va risk omillari chuqur o'rganiladi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank boshqaruvida riskka asoslangan boshqaruv (risk-based management) konsepsiyasi tobora keng qo'llanilmoqda. Iqtisodiy tahlil kredit, likvidlik, foiz, valyuta va operatsion risklarni aniqlash hamda ularning bank moliyaviy natijalariga ta'sirini baholash imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli kanallar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar sonining oshishi fonida kiber-xavfsizlik risklarini baholash va monitoring qilish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli boshqaruv sharoitida iqtisodiy tahlil boshqaruv qarorlarining shaffofligi va asoslanganligini ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tahliliy ko'rsatkichlarga asoslangan qarorlar bank ichki nazorat tizimini mustahkamlashga, menejment faoliyatini baholashga hamda mas'uliyatni aniq belgilashga xizmat qiladi. Bu esa banklarda korporativ boshqaruv sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, mijozga yo'naltirilgan boshqaruv modelini shakllantirmoqda. Iqtisodiy tahlil asosida mijozlarning xulq-atvori, moliyaviy ehtiyojlari va xizmatlardan foydalanish faolligi o'rganiladi. Ushbu tahlil natijalari bank mahsulotlarini individuallashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar sodiqligini mustahkamlashga xizmat qiladi[2].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shakllantirilayotgan tahliliy hisobotlar va statistik ma'lumotlar ham tijorat banklarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot bazasini yaratadi. Ushbu ma'lumotlar asosida banklar o'z strategiyalarini makroiqtisodiy holat va moliya bozoridagi o'zgarishlarga mos ravishda ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil tijorat banklarida boshqaruv faoliyatining axborot, nazorat va strategik tayanch mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, banklarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[3].

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy tahlilning asosiy maqsadi bank faoliyatidagi ko'rsatkichlarni tizimli ravishda o'rganish va boshqaruv qarorlarini faktlarga asoslashdir. Tijorat banklarining moliyaviy holati, aktiv va passivlar strukturasi o'zgarishi, kredit portfeli sifati va depozitlar hajmi bankning barqarorligini aniqlashda asosiy indikatorlar sifatida qaraladi. Shu bois, Markaziy bank tomonidan e'lon qilingan asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish bank boshqaruvi uchun dolzarb ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

1-jadval

Tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari[4]

№	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		summa	ulushi %	summa	ulush %	summa	Ulush %	summa	ulush%
Jami		800 652	100 %	551 809	100%	120 764	100 %	325 953	100%
Davlat ulushi mavjud banklar		523 943	65%	379 591	69%	74 023	61%	167 340	51%
1	O'zmilliyban k	136 979	17%	108 593	20%	19 334	16%	37 977	12%
2	O'zsanoat qurilish bank	93 438	12%	68 860	12%	10 401	9%	23 720	7%
3	Agrobank	84 134	11%	64 633	12%	13 694	11%	21 546	7%
4	Asaka bank	59 480	7%	39 577	7%	8 031	7%	16 987	5%
5	Xalq banki	46 896	6%	29 186	5%	8 740	7%	26 146	8%
6	Biznesni rivojlantis h banki	33 906	4%	23 271	4%	4 968	4%	12 314	4%
7	Mikrokredit Bank	26 208	3%	18 808	3%	3 575	3%	8 701	3%
8	Aloqa bank	25 348	3%	14 080	3%	3 354	3%	15 192	5%
9	Turon bank	17 555	2%	12 582	2%	1 926	2%	4 757	1%

2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarining jami aktivlari 800 652 mlrd so'm, kredit portfeli 551 809 mlrd so'm, kapitali 120 764 mlrd so'm va depozitlari 325 953 mlrd so'mni tashkil etadi.

Shu ko'rsatkichlar bo'yicha davlat ulushi mavjud banklar aktivlarning 65 %, kredit portfelinin 69 %, kapitalning 61 % va depozitlarning 51 %ini tashkil etadi. Bu davlat banklari mamlakat moliyaviy barqarorligida va kreditlash tizimida asosiy rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kredit portfeli va aktivlar ulushi bo'yicha davlat banklarining yetakchiligi ularning iqtisodiyotdagi ta'sirini oshiradi, shu bilan birga, moliyaviy risklarni kamaytirish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Depozitlar hajmi ham yuqori bo'lishi, banklarning likvidlik darajasini va mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Umuman olganda, bank sektoridagi resurslarning katta qismi davlat banklariga to'plangan bo'lsada, xususiy banklar ham kreditlash va depozit yig'ish orqali raqobat muhitini shakllantirishga hissa qo'shmoqda. Shu tariqa, tijorat banklari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi[5].

Xulosa va takliflar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatining transformatsiyalanishi boshqaruv tizimlariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli xizmatlar ulushining ortishi va moliya bozorlarida raqobatning kuchayishi banklardan boshqaruv qarorlarini yanada asosli, tezkor va samarali qabul qilishni talab etadi. Mazkur jarayonda iqtisodiy tahlil bank boshqaruvining muhim tayanch mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, strategik va operativ qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tahlil tijorat banklarida nafaqat moliyaviy natijalarni baholash, balki bank faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha kompleks boshqaruvni ta'minlash imkonini beradi. Xususan, aktivlar va majburiyatlar strukturasini tahlil qilish, kredit portfeli sifati va risk darajalarini aniqlash, likvidlik va kapital yetarililigini baholash orqali banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mumkin. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu tahlillar real vaqt rejimida amalga oshirilishi bank boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Maqolada asoslab berilganidek, iqtisodiy tahlil banklarda raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarishning muhim vositasidir. Raqamli xizmatlarni joriy etish, avtomatlashtirilgan bank tizimlari va masofaviy xizmatlar orqali operatsion jarayonlarni optimallashtirish katta hajmdagi investitsiyalarni talab etadi. Iqtisodiy tahlil ushbu investitsiyalarning samaradorligini baholash, xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi nisbatni aniqlash hamda kutilayotgan natijalarni prognoz qilish imkonini beradi. Bu esa bank resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank boshqaruvida risklarning yangi turlari paydo bo'lmoqda. An'anaviy kredit va bozor risklari bilan bir qatorda, kiber-xavfsizlik, texnologik va operatsion risklar ahamiyati ortib bormoqda. Iqtisodiy tahlil ushbu risklarni aniqlash, baholash va ularni minimallashtirish bo'yicha samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ayniqsa, riskka asoslangan boshqaruv modelining joriy etilishi banklarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, iqtisodiy tahlil bank boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi. Tahliliy ko'rsatkichlarga asoslangan qarorlar rahbariyat faoliyatini baholash, ichki nazorat va audit tizimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Bu holat korporativ boshqaruv sifatini yaxshilashga, bank ichki boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlar va mas'uliyatni aniq belgilashga xizmat qiladi. Natijada bank faoliyatida institutsional barqarorlik ta'minlanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlilning yana bir muhim jihati – mijozga yo'naltirilgan boshqaruv modelini shakllantirishdir. Tahlil natijalari asosida mijozlarning xulq-

atvori, ehtiyojlari va xizmatlardan foydalanish darajasi o'rganilib, bank mahsulotlari va xizmatlarini individuallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mijozlar sodiqligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va bankning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida so'nggi yillarda raqamli xizmatlar hajmining ortib borishi iqtisodiy tahlilga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Bank aktivlari va kredit portfelining o'sishi, moliya bozorida raqobatning kuchayishi boshqaruv qarorlarini puxta tahliliy asosda qabul qilishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy tahlil bank boshqaruvida strategik rejalashtirish va prognozlashning asosiy vositasi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalari iqtisodiy tahlilning raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari boshqaruv faoliyatini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Iqtisodiy tahlil bank boshqaruvida axborot ta'minoti, nazorat va strategik qarorlar qabul qilishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Uni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish banklarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, risklarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Shu sababli, kelgusida tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni avtomatlashtirish, ilg'or analitik usullarni joriy etish hamda tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Bu esa bank tizimining raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror va samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi malumotlar asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. Tijorat banklarida ichki monitoring tizimlarini takomillashtirish tavsiya etiladi, bunda moliyaviy ko'rsatkichlar, raqamli xizmatlar samaradorligi hamda xarajatlar va daromad balanslari muntazam tahlil qilinishi lozim.

2. Raqamli xizmatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni tahlil qilish tavsiya etiladi, jumladan investitsiya rentabelligi (ROI), xarajatlarning kamayishi, mijozlar sonining o'sishi va mijozlar bilan munosabatlarning chuqurlashuvi kabi ko'rsatkichlar asosida.

3. Iqtisodiy tahlil natijalari asosida KPI (asosiy ko'rsatkichlar) tizimini joriy qilish va uning monitoringini muntazam olib borish tavsiya etiladi, bu rahbariyatga faoliyat samaradorligini yaxshiroq baholash imkonini beradi.

4. Raqamli transformatsiya bilan bog'liq risklarni (kiber-xavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi, texnologik uzilishlar) baholash va ehtiyot choralarini ko'rish tavsiya etiladi, bu bankning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Bank ishi va moliya asoslari / Z. Mamadiyarov, A. Norov, O. Haydarov. Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021.
2. Pul va banklar / A.J. Abdullayev, Z.A. Qayimova, Sh.Sh. Boltaev, D.M. Narzieva. Buxoro: Durdona Nashriyoti, 2021.
3. To'xtayev Sh. (2022). Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari. O'zbekiston Bank jurnali.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti - <https://www.cbu.uz>
5. Muallif hisob-kitoblari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida.

HUMANSIENCES.UZ*№ 1 (2)-2026***INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI****JOURNAL OF HUMANITIES****ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com